



Vebsayt: <http://2ndsun.uz/index.php/yt>

TAJRIBA GURUHLARDAGI SIGIRLARNING SUT MAHSULDORLIGI KO'RSATKICHLARI

M. A. Nortasheva¹ O' Isomiddinov² Sh. Shomatov³ U. Xasanova⁴

Assistent. Samarqand Veterinariya medisinasi instituti¹

Samarqand Veterinariya medisinasi instituti talabalari^{2,3,4}

INFO:

Qabul qilindi: 04.03.2022

Ko'rib chiqildi: 05.03.2022

Chop etildi: 06.03.2022

Kalit so'zlar: *sutdorlik,*

sut yog'i, oqsili, sut

chiqimi, sut miqdori

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola sigirlarning sutdorligini aniqlash to'g'risidagi ilmiy ma'lumotlar tahlili bayon ettirilgan.

Copyright © 2022. [Creative Commons Attribution 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)

Dunyo mamlakatlarining chorvachiligini etakchi tarmog'i qoramolchilik hisoblanadi. Insonlarni dasturxonini to'kin-sochinligi ana shu tarmoqdan olinadigan sut va sut mahsulotlariga hamda qoramol go'shti va uni qayta ishlashdan olinadigan go'sht mahsulotlariga bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham qoramollarni shu jumladan sigirlarning sut mahsuldorligi bo'yicha ularning genetik potensialidan to'liq foydalanishga katta e'tibor qaratiladi.

Ma'lumki, sigirlarning sut mahsuldorligiga genetik va paratipik omillar katta ta'sir ko'rsatadi. Irsiyat bilan bog'liq bo'lgan omillarga hayvonning turi, zoti, zotdorligi, jinsi, yoshi kirsas, fenotipik omillarga tabiiy iqlim sharoiti, ekologik holat, oziqlantirish va asrash sharoitlari kiradi.

Biz o'z tadqiqotlarimizda ob'ekt qilib, qadimiy sut-go'sht yo'nalishidagi simmental zotini, qizil-

ola tusli golshtin zoti bilan bir marotaba chatishtirish natijasida olingan simmental zotli sigirlarni nozik-zich va mustahkam konstitutsiya tiplariga mansub bo'lgan sigirlarni sut mahsuldorligi va ushbu seleksion belgi bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlarni o'rganib, tegishli xulosa qilishni maqsad qilib qo'ygan edik. Shuning uchun tajriba guruhlaridagi turli konstitutsiya tipiga mansub sigirlarning sut mahsuldorligini o'rganib, quyidagi jadvalda keltirdik.

Jadval ko'rsatkichlaridan shunday xulosa qilish mumkinki, tajriba guruhlaridagi sigirlarning konstitutsiya tipidan qat'iy nazar laktatsiya mobaynida bergan sut miqdori yuqori darajada bo'lgan. Ammo, II guruhdagi sigirlar foydasiga, I guruhdagi o'z tengqurlariga nisbatan sut miqdori 94,7 kg ($P < 0,05$) yoki 2,1 foiz ko'p bo'lgan.

1-jadval. Har xil konstitutsiya tipidagi sigirlarning sut mahsuldorligi, kg, ($X \pm S_x$)

Ko'rsatkichlar	Guruhlar			
	I (n=10)		II (n=10)	
	$X \pm S_x$	$C_v, \%$	$X \pm S_x$	$C_v, \%$
Laktatsiya davridagi sut sog'imi, kg	4647,0 \pm 48,0	7,12	4741,7 \pm 45,0	6,74
Sut tarkibidagi yog', %	3,84 \pm 0,03	0,41	3,85 \pm 0,01	2,05
Sut tarkibidagi oqsil, %	3,44 \pm 0,03	0,25	3,43 \pm 0,01	3,1
Sut yog'i chiqimi, kg	178,4 \pm 4,4	6,11	182,6 \pm 4,2	6,17
Sut oqsili chiqimi, kg	159,9 \pm 6,17	6,16	162,6 \pm 6,19	6,21
4 % li sut miqdori, kg	4461,1 \pm 26,8	7,20	4563,9 \pm 27,8	7,01
Quruq modda, %	12,14	X	12,15	X
Yog'sizlantirilgan quruq sut qoldig'i (YOQSQ), %	8,64	X	8,65	X
Sut qandi, %	4,49	X	4,49	X

Har ikkala guruh sigirlarida ham sut mahsuldorligi bo'yicha sut yog'i chiqimi, sut oqsili chiqimi, 4 % li sut miqdori bo'yicha o'zgaruvchanlik koeffitsientlari yuqori darajadagi ko'rsatkichlarga ega bo'lgan, bu esa sigirlarda ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha guruhlarda tanlash imkoniyatlari yuqori ekanligini ifodalaydi.

Sutning sifat ko'rsatkichlari to'g'risida fikr yuritilganda uning tarkibidagi yog' va oqsil ko'rsatkichlari tushuniladi. Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha ham, II tajriba guruhidagi mustahkam konstitutsiya tipiga mansub sigirlar o'z tengqurlari, I tajriba guruhidagi nozik-zich konstitutsiya tipli sigirlardan sezilarli bo'lmagan darajada ustunlik qilgan.

Sut yog'i chiqimi tajribadagi sigirlarda tegishlicha: 178,4 va 182,69 kg ni tashkil qilgan. Aniqlangan farq II guruhdagi sigirlar foydasiga 4,2 kg ($P < 0,05$) yoki 2,4 foizga teng bo'lgan. Oqsil chiqimi sigirlarda tegishlicha 159,9 va 162,6 kg ni tashkil qilib, farq II guruhdagi mustahkam

konstitutsiya tipidagi sigirlar foydasiga 2,7 kg ($P>0,05$) yoki 1,7 foizga teng bo'lgan.

4 % li sut miqdorini hisoblash sigirlarning sut mahsuldorligiga qarab baholashda muhim o'rin tutadi. Bizning tadqiqotlarimizda, uning miqdori guruhlarda shunga mos ravishda: 4461,6 va 4563,9 kg ga teng bo'lgan. Farq II guruhdagi sigirlar foydasiga 102,3 kg ($P<0,05$) yoki 2,3 foizni tashkil qilgan. Quruq modda, yog'sizlantirilgan quruq sut qoldig'i (YOQSQ) va sut qandining ko'rsatkichlari bo'yicha guruhlararo farq kuzatilmagan. Ularning miqdori har ikkala guruh sigirlarida ham deyarli bir xil darajada bo'lgan.

Shunday qilib, sut sog'imi va uning sifatko'rsatkichlari bo'yicha, II guruhdagi sigirlar o'z tengqurlari I guruhdagi sigirlardan ustunlik qilishgan.

Xulosa. Sigirlarning konstitutsiya tiplaridan qa'tiy nazar, har 100 kg tirik vaznga ishlab chiqarilgan sut miqdori, 4 % li sut, sut yog'i chiqimi va sut oqsili chiqimi har ikkala tajriba guruhidagi sigirlara yuqori darajada bo'lgan. Bu esa sigirlardan foydalanish samarali va yuqori mahsuldor podalar yaratishda muhim omil ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kaxarov A., Narbayeva M., Shaptakov E. Shermatov A. Xushvaqto'v A., Qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish. O'quv qo'llanma. Samarqand 2018
2. U.N. Nosirov. Qoramolchilik. Toshkent.2001.364 b. 4. U.N. Nosirov, I.M.Maqsudov, M.X.Dusmuxamedova. O'zbekistonda qoramolchilikni rivojlantirish omillari. Toshkent. 2011. 198 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017.
5. SAPP JAN «Genesis: The Evolution of Biology». Oxford University Press, USA. 2018, USA.